Annotatsiya: Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish doimo ustuvor vazifalardan biri bo'lib, iqtisodiy taraqqiyotda erishilayotgan yutuqlarning muhim omili hisoblanadi. Investitsiyalarni faol jalb qilish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqali iqtisodiyotda jadal rivojlanishga erishish mumkin. Iqtisodiy sohadagi ijobiy natijalar ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal qilish imkonini yaratadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, avvalo, kapital qo'yilmalar hisobining samarali yuritilishiga bog'liqdir. Ushbu maqolada kapital qo'yilmalar hisobini tashkil etishning ayrim masalalari tahlil etilib, amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: kapital qo'yilmalar, asosiy vositalar, tugallanmagan kapital, inventarizatsiya, xarajatlar, tannarx, biologik aktivlar, ko'p yillik ekinlar uchun sarflangan kapital qo'yilmalar.

Abstract: In the context of national modernization, improving the structural composition of the economy remains a top priority and serves as a key driver of economic development. Rapid economic growth can only be achieved through active investment attraction and the launch of new production capacities. Positive outcomes in the economy enable a systemic approach to solving accumulated social issues. Strengthening the material and technical base of economic entities and expanding their production capabilities directly depend on the effective organization of capital investment accounting. This article examines specific issues related to capital investment accounting and offers relevant practical recommendations.

Key words: capital investments, fixed assets, work in progress, inventory, expenditures, cost price, biological assets, capital investments in perennial plantations.

Аннотация: В условиях модернизации страны совершенствование структурной структуры экономики остаётся приоритетной задачей и представляет собой важный фактор достижения экономического роста. Только активное привлечение инвестиций и ввод в эксплуатацию новых производственных мощностей позволит добиться устойчивого развития экономики. Положительные результаты в экономике создают основу для системного решения накопившихся социальных проблем. Улучшение материально-технической базы хозяйствующих субъектов и расширение их производственных возможностей напрямую зависят от эффективной организации учета капитальных вложений. В статье рассматриваются отдельные аспекты ведения учета капитальных вложений, предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: капитальные вложения, основные средства, незавершённый капитал, инвентаризация, затраты, себестоимость, биологические активы, капитальные вложения в многолетние насаждения.

KIRISH

Kapital qo'yilmalar, xususan iqtisodiyotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kapital qurilish sohasida bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishning sifat jihatidan yangi bosqichi asos solmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va bozor iqtisodiyotining rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitida amalga oshirilayotgan ko'pgina tadbirlar, avvalo, tarmoq va hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan qonun-qoidalarning o'rni beqiyosdir.



Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Investitsiyalar – bu mamlakatimiz transformatsiyasining lokomotivi va iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveridir." [2]

Hozirgi sharoitlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kapital qo'yilmalar jarayoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, kapital qo'yilmalar korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, oshirish va mustahkamlashga yo'naltiriladi. Bu esa buxgalteriya hisobida asosiy vositalarning ko'payishi orqali ifodalanadi.

O'tkazilayotgan islohotlar natijasida mazkur muammoning yechimi sifatida "yirik davlat korxonalarida moliyaviy hisobot tuzish va audit o'tkazishda xalqaro standartlarni joriy qilish" [1] kabi muhim vazifalar belgilangan. Korxonalar faoliyatida kapital qo'yilmalarni to'g'ri hisobga olish, dastlabki hujjatlashtirish, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash, mablag'larning tegishli obyektlar o'rtasida aniq taqsimlanganligi va maqsadli sarflanganligini tekshirishda ko'plab muammolar mavjudligi kuzatilmoqda.

Kapital qo'yilmalarni hisobga olishning amaldagi tartibi quyidagi imkoniyatlarni yaratishi lozim: sarflangan kapital xarajatlarni to'liq va ishonchli aks ettirish, loyihalarni moliyalashtirishga jalb qilingan mablag'larni aniq maqsadga yo'naltirish, qurilish ishlarida mablag' taqchilligini bartaraf etish hamda qurilishi yakunlangan obyektlarni foydalanishga o'z vaqtida topshirishni ta'minlash.

Shuni ta'kidlash kerakki, mavjud muammolar kapital qo'yilmalarni hisobga olish va ularning auditini tashkil etish tizimining kamchiliklarini ochib bermoqda. Amaldagi tizim hali ham kapital xarajatlarni to'liq va ishonchli aks ettirish, jalb qilingan mablag'larni aniq maqsadlarda sarflash, qurilish jarayonidagi resurs yetishmovchiligini bartaraf etish hamda qurilishi tugallangan obyektlarni o'z vaqtida foydalanishga topshirish imkonini to'liq ta'minlamaydi.

Shuningdek, bu masalalar buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar talablari darajasida ilmiy asosda to'liq yoritilmagan. Bu holat mavjud muammolarning zamonaviy yechimlarini ilmiy asosda ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi va mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Shu sababli, iqtisodiyot tarmoqlarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar jahon tajribasi asosida, milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda olib borilmoqda. Bu jarayonda turli mulkchilik shaklida faoliyat yuritayotgan subyektlar – jamoa, ijara, shirkat va aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobi, ayniqsa ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish va tahlil qilish borasida muhim vazifalar yuzaga chiqmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda Rossiyalik iqtisodchi olim A.D. Sheremet [3] tomonidan kapital qo'yilmalar hisobi va auditini mustaqil fan sifatida shakllantirish, uning predmeti va obyektlarini aniqlashtirish hamda yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Uning xulosalariga tayanib, V.I. Podolskiy [4] tomonidan ushbu sohada nazariy qoidalar yanada rivojlantirilgan.

Mamlakatimizda esa bu boradagi masalalar ayrim darslik, monografiya va ilmiy maqolalarda qisman yoritilgan. Xususan, M.M. Tulaxodjayeva o'z ta'rifida quyidagicha ifoda etadi: "Korxonalar o'zini modernizatsiya qilishga yo'naltirgan mablag'lar kapitalizatsiya xarajatlari yoki kapital qo'yilmalar deb ataladi." [5]

Professor H.N. Musayev esa ta'kidlaydi: "Iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar deganda asosiy vositalarni yangilash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tushuniladi. Hozirgi davrda mamlakatimizda kapital qo'yilmalar asosiy vositalarga qilinadigan investitsiyalar shaklida amalga oshiriladi." [6]

Xuddi shunday fikrni R.D. Dusmurov ham bildiradi [7].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yuqoridagi tadqiqotlar mavzuga oid umumiy yondashuvlarni beradi, biroq kapital qo'yilmalar hisobining mohiyati va uning metodologik asoslari chuqur ilmiy tahlil etilmagan. Bu holat ushbu yo'nalishda kompleks ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari, o'quv qo'llanmalari va maqolalari tahlil qilindi. Shuningdek, statistik tahlillar, jadvallarni analitik solishtirish, guruhlash, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini hisoblash hamda ularni o'zaro taqqoslash kabi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda buxgalteriya hisobining yangi talablar asosida tashkil etilishi natijasida, korxonalar iqtisodiyotida investitsiyalarning muhim tarkibiy qismini tashkil etuvchi kapital qo'yilmalarning ahamiyatini hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Investitsiyalar jarayonida kapital qo'yilmalarning o'zni nazariy jihatdan chuqur tahlil etilishi lozim, chunki bu masala tadqiqot obyekti bo'lgan subyektning o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Investitsiya



sohasi mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlaydi, shuningdek, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida jadal o'sishning poydevorini yaratadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda qisqa vaqt ichida kapital qo'yilmalarni rivojlantirish uchun ob'yektiv ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar shakllantirildi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek:

"Mamlakatimizda olib borilayotgan jadal va keng qamrovli islohotlar yurtimizda yangi davrni – yangi O'zbekiston davrini boshlab berdi."

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyati "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunning 3-moddasiga muvofiq, investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlariga tavakkalchilik asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar, ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalardir [8].

Investitsiyalarning mazmuni va mohiyati to'g'risidagi zamonaviy yondashuvlarni sharhlash, taqqoslash va tanqidiy baholash orqali ularning mikro va makroiqtisodiy darajadagi farqlari aniqlanadi.

Olimlar o'rtasida investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati bo'yicha turlicha qarashlar mavjud. Masalan, D. G'ozibekovning fikricha:

"Odatda, makroiqtisodiy darajada investitsiyalar – bu ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqarish, yangi uy-joylar qurish, tovar-moddiy zaxiralarni ko'paytirishga qaratilgan xarajatlarning bir qismi hisoblanadi." [9]

U.Sharp va J. Beylilarning ta'rifida esa:

"Investitsiya – bu kelgusida qiymat olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatdan voz kechishdir." [10]

Mikroiqtisodiy darajada investitsiyalar deganda, yangi kapital – jumladan ishlab chiqarish vositalari va intellektual salohiyat – orqali takror ishlab chiqarishni tashkil etish jarayoni tushuniladi.

Amaliyotda va ilmiy adabiyotlarda "investitsiyalar", "kapital qo'yilmalar" hamda "aylanmadan tashqari kapital qo'yilmalar" kabi iqtisodiy atamalarning keng tarqalganligi ularning mohiyatini yanada aniqlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu atamalar bir qarashda o'xshash bo'lsa-da, ularning mazmuni va qo'llanilish doirasi farqlanadi. Umuman olganda, ushbu atamalar mulkni barpo etish, xarid qilish, yangilash, kengaytirish va qayta ta'mirlashga qaratilgan xarajatlarni anglatadi.

Masalan, K. Eklundning fikricha:

"Investitsiya – bu kelajakda ko'proq iste'mol qilish imkoniyatiga ega bo'lish uchun ertangi kunga qoldirilgan narsa. Uning bir qismi hozirda ishlatilmasdan zaxiraga qoldiriladigan iste'mol buyumlari, boshqa qismi esa ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan resurslardir." [11]

Bu ta'rif, mohiyatiga ko'ra, kapital qo'yilmalar tushunchasiga yaqin keladi.

Kapital qo'yilmalarga ehtiyoj har doim katta, ammo ularni moliyalashtirish manbalari-kredit, davlat budjeti mablag'lari, korxonalar foydasi, amortizatsiya va boshqalar-cheklangan, shuning uchun sarflangan har bir so'm uchun maksimal natijani olish uchun ulardan samarali foydalanish kerak.

Kapital qo'yilmalar hisobini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish faqatgina hisob ma'lumotlari doirasining mazmunini, maqsadga muvofiqligini, muddatini, buxgalteriya hisobini yuritish kapital qo'yilmalarni boshqaruv hisobining obektlarini aks ettirish usullarini kengaytirish asosida bo'lmasligi kerak, chunki ushbu holat hisob ishlarining hajmi ortishiga olib kelishi mumkin. Kapital qo'yilmalar buxgalteriya hisobi ishlab chiqarishning boshqaruv tizimida faqatgina boshqaruv obektlari haqida ma'lumot berish manbai bo'lib qolmasdan, balki uning holati ustidan tezkor ravishda nazorat qilish vositasi ham hisoblanadi. Xullas, korxonalar faoliyatida kapital qo'yilmalar haqidagi zaruriy, tezkor va aniq ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi berishi lozim. Kapital qo'yilmalar hisobini tashkil etishning mavjud varianti tarmoq korxonalarida kapital qo'yilmalarning analitik hisobini to'liq qamrab ololmaydi.

Bugungi kunda tadqiqot obyekti hisoblangan korxonalarda kapital qo'yilmalar bo'yicha axborotlar amaldagi tegishli moliyaviy hisobot shakllarida qisqacha ifodalanmoqda. Ammo, bozor iqtisodiyoti sharoitida turli yangi iqtisodiy infratuzilmalarning vujudga kelishi ushbu infratuzilmalarga nisbatan investorlarning qiziqishini orttirmoqda. Mazkur holatlar investor uchun har bir qishloq xo'jalik korxonasida kapital qo'yilmalar obektlarini ajratib ko'rsatish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Biroq amaliyotda kapital qo'yilmalar harakatini aniq ifodalovchi bunday hisobot shakli mavjud emas. Shu sababli, ilmiy izlanishlar natijalariga asoslangan holda ishda korxonalarining alohida xususiyatlarini aks ettiradigan "Kapital qo'yilmalar harakati to'g'risida"gi hisobot shaklini tavsiya etamiz. (1-jadval).

Jadvalda kapital qo'yilmalar obyekti alohida qatorlarda ajratib ko'rsatilgan va yil boshiga kapital qo'yilmalarning qoldiq qiymati, yil davomida bajarilgan ishlar summasi, tugallanib kapital qo'yilmalar hisobidan chiqarilgan qiymatliklar hamda yil oxiriga kapital qo'yilmalarning qoldiq qiymati alohida ustunlarda ifodalangan.

1-jadval. Kapital qo'yilmalar harakati to'g'risidagi hisobotning taklif etilayotgan shakli,¹ ming so'mda.

T/r	Kapital qo'yilmalarning turlari	Satr kodi	Yil boshiga kapital qo'yilmalarning qoldiq qiymati	Yil davomida bajarilgan ishlar summasi	Tugallanib kapital qo'yilmalar hisobidan chiqarilgan qiymatlik lar	Kapital qo'yilmalarning qoldiq qiymati
1	2	3	4	5	6	7=4+5-6
1.	Tugallanmagan qurilish	010	400 000	150 000	100 000	450 000
2.	Asosiy vositalarni sotib olish	020		350 000		350 000
3.	Nomoddiy aktivlarni sotib olish	030		50 000		50 000
4.	Biologik aktivlar a) (Xayvonlar podasi)ni shakllantirish	040	600 000	200 000	150 000	650 000
	b) Ko'p yillik daraxtlarni ekish va parvarishlashga sarflangan kapital qo'yilmalar	070	40 000	50 000	40 000	50 000
5.	Yerni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar	050	80 000	20 000	30 000	70 000
6.	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar	060	180 000	10000	50 000	140 000
7.	Boshqa kapital qo'yilmalar	080	100 000	50 000	20 000	130 000
Jami		100	1 400 000	880 000	390 000	1890 000

Keltirilgan hisobot shaklining iqtisodiy zaruratini hisobga olib, uni O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan moliyaviy hisobot shakllariga qo'shimcha ravishda kiritish va 6-sonli "Kapital qo'yilmalar harakati to'g'risidagi hisobot" deb nomlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu hisobot shakli tashqi va ichki foydalanuvchilar, xususan salohiyatli investorlar uchun kapital qo'yilmalar to'g'risida o'z vaqtida va ishonchli ma'lumotlar olish imkonini yaratadi.

Bu holat xalq xo'jaligi korxonalarida kapital qo'yilmalarga sarflangan xarajatlarni bajarilgan ishlar bo'yicha aniq taqsimlash, xarajatlar hisobining analitik xususiyatini oshiradi va ularni to'g'ri hisobga olish imkonini beradi. Shuningdek, kapital qo'yilmalar tarkibini aniqlashtirish, xarajatlar obyektlarini to'g'ri belgilash va bu xarajatlar nazoratini tegishli javobgarlik markazlari zimmasiga yuklashga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-sonli milliy standartiga ko'ra, uzoq muddatli ijara sarflangan investitsiyalar ijara shartnomasiga asosan 0310-"Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar" schyotida hisobga olinadi. Buxgalteriya hisobining 6-sonli "Ijara hisobi" nomli milliy standartiga muvofiq, «ijara quyidagilarga bo'linadi: lizing (moliyaviy ijara), uzoq muddatli ijara, qisqa muddatli ijara.

Mazkur obyektlarni obodonlashtirishga sarflangan kapital xarajatlar alohida 0860-"Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar" schyotida aks ettiriladi. Ushbu schyot debetida obodonlashtirishga sarflangan kapital qo'yilmalar tasdiqlovchi hujjatlar (dalolatnomalar, naryadlar) asosida aks ettirilib, sarflangan xarajatlar turiga qarab, 1000-"Materiallar hisobi schyotlar", 6710-"Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisoblashlar", 6990-"Boshqa majburiyatlar" schyoti kreditlanadi.


0860-"Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar" schyotida yig'ilgan summani hisobga olishda 0100-"Asosiy vositalar hisobi schyotlari" schyoti tarkibidaga 0112 -"Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish" schyoti nomini -"Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olinib o'zlashtirilgan asosiy vositalar" deb atalsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki obodonlashtirish so'zi tugallanmagan jarayonni bildiradi. Shu bilan birga obodonlashtirilib bo'lingan yerning qiymati 0111-"Yerni obodonlashtirish" schyotida hisobga olinsa ushbu masalaga mantiqan to'g'ri yondoshilgan bo'lar edi. Bizningcha 0100-"Asosiy vositalar" schyotlari tizimida 0113-"Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan va obodonlashtirib o'zlashtirilgan asosiy vositalar" schyotini ochish ijara olingan

¹ Kapital qo'yilmalar harakati to'g'risidagi hisobotning muallif tomonidan taklif etilayotgan shakli.




va obodonlashtirish suyeht tomonidan amalga oshirilganda asosiy vositaning boshlang'ich qiymati va uni obodonlashtirish xarajatlarini aniq hisob-kitobini yuritish imkonini beradi, va ijaraga olinib, obodonlashtirilmasdan ijara to'lovlarini to'lab bo'lgandan so'ng birdan subyeht o'zining asosiy vositalari tarkibiga qabul qilgan asosiy vositalarni farqlari va ularni tahliliy xususiyatlari yanada ortishiga olib keladi. Shuningdek, mazkur obyektlar eskirishini hisobga olish uchun 0200-"Asosiy vositalarning eskirishi hisobi schyotlari" schyoti tarkibida ham 0213-"Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan va obodonlashtirib o'zlashtirilgan asosiy vositalarning eskirishi" schyotini ochish lozim.

Bizningcha kapital qo'yilmalar hisobini xalqaro standartlar talabi asosida shakllantirish uchun kapital qo'yilmalarni aks ettiruvchi schyotlarni quyidagicha turlarga bo'lib schyotlar rejasini ishlab chiqish kerak. (1,2 3 va 4-rasmlar.)




1-rasm. 0810-Tugallanmagan qurilish schyotini tarkibi²




2-rasm. 0820- Asosiy vositalarni xarid qilish schyotining tarkibi.³

² Xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida muallif tomonidan taklif etilmoqda

³ Xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida muallif tomonidan taklif etilmoqda.



3-rasm. 0841-Biologik aktiv (xayvonlarni) parvarishlash xarajatlari schyotini tarkibi⁴



4-rasm. 0842-Biologik aktiv (Ko'p yillik daraxtlarni ekish va parvarishlashga sarflangan kapital qo'yilmalar schyotini tarkibi⁵

Mamlakatimizda kapital qo'yilmalar hisobini tashkil etishning hozirgi holatini tahlil qilishda moliyaviy hisobning 16-sonli "Asosiy vositalar hisobi", 40-sonli "Mulkka qo'yilgan investisiya" va 11-sonli BHXS -" Qurilish shartnomalari" nomli xalqaro standartlari hamda O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 5-sonli "Asosiy vositalar", 6-sonli "Lizing hisobi", 7-sonli "Nomoddiy aktivlar hisobi" va 17-sonli "Kapital qurilishga oid pudrat shartnomalari" kabi milliy standartlari talablarini o'rganib chiqish zarur. Xususan, 16-sonli "Asosiy vositalar hisobi" nomli moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga muvofiq, "yer asosiy vosita hisoblanib, uning qiymatini sotib olish bahosi, yer maydonidagi qurilishlarni buzib tashlash bo'yicha sof xarajatlar, huquqshunoslarga to'lanadigan haq hamda ko'chmas mulk bo'yicha tijorat agenti xarajatlari kabilar tashkil etadi".

4 Xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida muallif tomonidan taklif etilmoqda

5 Xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida muallif tomonidan taklif etilmoqda



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonalarda kapital qo'yilmalar hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan respublikamizda kapital qo'yilmalarni hisobga olish amaliyotini xorijiy davlatlar tajribasi bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Kapital qo'yilmalar hisobini yuritishda hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish va ularning hisobini aniq olib borish buxgalteriya ishlarining asosiy mezonini hisoblanadi. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobining asosiy vazifalaridan biri bo'lgan nazoratni kuchaytirish zarur. Bu esa iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarda kapital mablag'lardan samarali foydalanishni, mablag'larni oqilona sarflashni, xarajatlarni optimallashtirishni ta'minlaydi.

Shuningdek, buxgalteriya hisobi hujjatlarini foydalanuvchilar ehtiyojlariga moslashtirish, kapital qo'yilmalar tahlilini takomillashtirish hamda audit natijalaridan boshqaruv qarorlarini shakllantirishda foydalanish taklif etiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, kapital qo'yilmalar hisobini takomillashtirish orqali respublikamizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-sonli Farmoni. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida "Investitsiya, eksport va sanoat sohasidagi ustuvor vazifalar" muhokamasi yuzasidan 2024-yil 18-yanvarda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutq.
3. Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит. Учебник. М.: ИНФРА-М, 2009. – 456 с.
4. Подольский В.И. Аудит. Учебник. 4-е изд. – М.: 2010. – 744 стр.
5. Тўлаходжаева М. Корхона молиявий аҳволи аудити. Ўқув қўлланма. – Т.: "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси", 1998. – 193 б.
6. Мусаев Ҳ.Н. Аудит. Дарслик. – Т.: "Молия", 2013. – 14-бет.
7. Дусмуратов Р.Д. Аудиторлик фаолияти: назария, услубиёт ва амалиёт. Монография. – Т.: "Молия", 2017. – 22-бет.
8. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Т.: Toshkent sh., 2019-yil 25-dekabr. O'RB-598-son.
9. Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. – Т.: "Молия", 2003. – 332 б.
10. Шарп У. и др. Инвестиция. – М.: "Инфра", 2000. – 979 б.
11. Эклунд К. Эффективная экономика: шведская модель. – М.: "Экономика", 1991. – 260 с.
12. Egamberdiyeva S.R. Xalqaro standartlar asosida qishloq xo'jaligida aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, maxsus son. 2024-yil, may. – B. 71–75.
13. Egamberdiyeva S.R. Classification of agricultural assets in the conditions of modernization of the economy, improving their accounting and reporting. Gospodarka i Innowacje. Volume: 47 | 2024. ISSN: 2545-0573. – 12-May, pp. 193–199. https://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/issue_view_32/article/view/2603/2404



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>